| <b>Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li</b>                                                                                                                                                                           |     |
| O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI:<br>EKONOMETRIK TAHLIL.....                                                                                                                           | 288 |
| <b>H.S. Bobojonov</b>                                                                                                                                                                                             |     |
| OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING<br>USLUBIY ASOSLARI.....                                                                                                                             | 294 |
| <b>Mamanazarov A.A.</b>                                                                                                                                                                                           |     |
| OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI<br>BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQRISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING<br>METODOLOGIK JIHATLARI.....                                                           | 299 |
| <b>Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich</b>                                                                                                                                                                          |     |
| BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA<br>ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                                          | 308 |
| <b>Axmetova Salima Seytovna</b>                                                                                                                                                                                   |     |



|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| HUDUD IQTISODIYOTIGA "YASHIL INVESTITSİYALAR"NI JALB QILISH<br>MEXANIZMLARINING USLUBIY JIHATLARI.....                                                             | 313 |
| <b>To'xtayev Maqsud Mansurovich</b>                                                                                                                                |     |
| TURIZM SOXASIDA XIZMATLAR SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR<br>(SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....                                                             | 321 |
| <b>Suyunov R.G'.</b>                                                                                                                                               |     |
| SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY<br>TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETISH ISTIQBOLLARI .....                                           | 326 |
| <b>Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li</b>                                                                                                                         |     |
| AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARI ASOSIDA<br>SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH.....                                                      | 334 |
| <b>Berdiyev Abdumalik Hakimovich</b>                                                                                                                               |     |
| AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA<br>KUZATUVLARNING O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....                                                   | 340 |
| <b>Siroj Zarina Rustambekovna</b>                                                                                                                                  |     |
| MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF USING ISLAMIC<br>FINANCE INSTRUMENTS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....                               | 347 |
| <b>Toshxo'jayev Abduqodirxon Abdulmanurxon ugli</b>                                                                                                                |     |
| KORPORATIV BOSHQARUVNING IQTISODIY MAZMUNI VA QURILISH KORXONALARI<br>FAOLIYATIDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI .....                                                 | 354 |
| <b>G'iyosov Ilxom Karimovich</b>                                                                                                                                   |     |
| FORECASTING OF AGRICULTURAL PRODUCTION INDICATORS IN<br>SURKHANDARYA REGION USING THE ARIMA MODEL.....                                                             | 361 |
| <b>Abdurayimov Kamoliddin Khurram oglu</b>                                                                                                                         |     |
| BARQAROR HOSILDORLIKNI TA'MINLASHNING IQTISODIY<br>YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....                                                                 | 369 |
| <b>Turayeva Gulizahro</b>                                                                                                                                          |     |
| INNOVATION EKOTIZIMDA FAN-TA'LIM-ISHLAB CHIQUARISH<br>INTEGRATSIYASINING IQTISODIY JIHATLARI .....                                                                 | 374 |
| <b>Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich</b>                                                                                                                       |     |
| INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING<br>INTEGRAL INDEKSINI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI<br>BAHOLASHDAGI AHAMIYATI..... | 378 |
| <b>Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi</b>                                                                                                                              |     |
| OHAK TOSH QAZIB OLISH JARAYONIDA ATROF MUHITDAGI ZARARI VA OLDINI OLISH.....                                                                                       | 386 |
| <b>Kaxorov Ulug'bek</b>                                                                                                                                            |     |
| DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIVAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA<br>BOSHQARISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR) .....        | 389 |
| <b>Abdukarimov Akbar G'anisherovich</b>                                                                                                                            |     |
| KORXONALAR FAOLIYATINI INNOVATION RIVOJLANTIRISHNI IMITATION<br>MODELLASHTIRISH.....                                                                               | 393 |
| <b>Raximov Azizbek Zokirovich</b>                                                                                                                                  |     |
| OROLBO'YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA'LIM<br>XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI.....                                                                        | 400 |
| <b>Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich</b>                                                                                                                          |     |
| TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH<br>ORQALI ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING<br>STRATEGIK YO'NALISHLARI.....             | 404 |
| <b>Kodirova Xurshida Ismoilovna</b>                                                                                                                                |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATION MENEJMENT<br>TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI .....                                                           | 409 |
| <b>Yusupov Ulug'bek Shukurullayevich</b>                                                                                                                           |     |
| <b>Omonov Abdurazzoq Komil o'g'li</b>                                                                                                                              |     |





|                                                                                                                                            |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KREATIV IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI O'RTASIDAGI<br>O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....                                    | 416 |
| <b>Xamidova Soro</b>                                                                                                                       |     |
| <b>Toshpulatova Laylo</b>                                                                                                                  |     |
| DIGITALLY-ENABLED COMMUNITY AGRITOURISM AS A PATHWAY TO RURAL<br>INCOME IN THE ARAL SEA REGION: A CONCEPTUAL APPROACH.....                 | 423 |
| <b>Mariya Bekimbetova</b>                                                                                                                  |     |
| SIFAT MENEJMENTI TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHGAN XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISH<br>MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI ..... | 427 |
| <b>Qurbonova Dilafruz Anvarjon qizi</b>                                                                                                    |     |
| SANOAT ZONALARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMAVIY<br>RESURLARNI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....                 | 431 |
| <b>Arifbayev Bobir Dilshodovich</b>                                                                                                        |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSİYALARNI SUG'URTALASHDAGI<br>AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ISTIQBOLLARI .....              | 439 |
| <b>Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi</b>                                                                                                 |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOT HAJMIGA TA'SIR<br>ETUVCHI MAKROIQTISODIY OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI .....             | 443 |
| <b>Safarova Yulduz Abbas qizi</b>                                                                                                          |     |





## KIRISH

Har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini, aholi farovonligini va iqtisodiyotning umumiy salohiyatini ko'rsatib beruvchi eng muhim makroiqtisodiy indikator bu — yalpi ichki mahsulot (YalM) hisoblanadi. YalM ma'lum bir davr davomida mamlakat hududida yakuniy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlarning bozor qiymatidagi yig'indisidir. Jahon amaliyotida turli davlatlarning iqtisodiy qudrati, xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi va barqaror o'sish tendensiyalari aynan YalM dinamikasi orqali taqqoslanadi va baholanadi.

Bugungi globallashuv jarayonlari va XXI asr iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizda YalM hajmini barqaror sur'atlar bilan oshirish muhim iqtisodiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgan davrda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi kuzatilgan. Mamlakatimizda YalMning izchil o'tib borishi nafaqat real sektor tarmoqlari (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish), balki xizmatlar ko'rsatish sohasi, kichik va o'rta biznes subyektlarining faollashuvi hamda ichki va tashqi investitsiyalar oqimining jadallashishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Iqtisodiy o'sishning ushbu yuqori sur'atlari haqida to'xtalib, O'zbekiston YalM hajmi 2025-yil yakuniga kelib 130 mlrd dollardan ortishi kutilmoqda. Bu haqda Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan taqdirlanganlarga mukofotlarni topshirish marosimida ma'lum qildi. "O'tgan sakkiz yilda yalpi ichki mahsulotimiz shiddat bilan o'sib, 115 mlrd dollarga yetdi. Bugun bitta raqamni birinchi marta aytmogchiman: Xalqaro valyuta jamg'armasi prognoziga ko'ra, bu yil iqtisodiyotimiz hajmi 130 mlrd dollardan oshishi kutilmoqda", — dedi Shavkat Mirziyoyev.<sup>1</sup>

Makroiqtisodiy tahlilda YalMni nafaqat ishlab chiqarish, balki xarajatlar usuli (yakuniy iste'mol usuli) bo'yicha ham tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun uning qaysi komponenti — aholi iste'moli, davlat xarajatlari yoki yalpi investitsiyalar yetakchi omil ekanligini aniqlash lozim. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi YalM hajmining shakllanishida makroiqtisodiy xarajatlar omillarining ta'sir darajasi ekonometrik modellashirish orqali chuqur tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yalpi talab komponentlarining iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi nazariy asosi Jon Meynard Keynsning makroiqtisodiy modeliga borib taqaladi. Ushbu nazariyaning empirik rivojlanishiga xalqaro miqyosda tanikli iqtisodchilar Robert Barro va Gregori Menkyu o'zlarining fundamental tadqiqotlari bilan muhim hissa qo'shgan. Robert Barro o'zining mamlakatlar kesimidagi iqtisodiy o'sish tahlilida davlat xarajatlarning tarkibi va ularning xususiy investitsiyalarni siqib chiqarish yoki rag'batlantirish effekti orqali YalMga ta'sirini ko'rsatib bergan<sup>2</sup>.

O'zbekistonda YalM omillari va tarkibiy qismlarini ekonometrik modellashirish masalalari iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, B. Y. Xodiyev va boshqa mahalliy tadqiqotchilar o'zlarining ekonometrik modellashirishga oid ishlarida O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ishlab chiqarish funksiyalari va ko'p omilli regressiya modellarini qo'llash metodologiyasini asoslab bergan. Ularning xulosalariga ko'ra, o'tish iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar va ichki iste'mol talabi YalM barqarorligini ta'minlovchi asosiy ustunlar hisoblanadi<sup>3</sup>.

Shuningdek, makroiqtisodiy siyosat tahlili bilan shug'ullanuvchi mahalliy tadqiqotchilardan Sh. V. Mustafakulov o'z ilmiy izlanishlarida mamlakatdagi investitsion jozibadorlik va asosiy kapitalga kiritilayotgan sarmoyalarning YalM o'sish sur'atlariga ta'sirini empirik tahlil qilgan. Muallif investitsiya omillarining multiplikator samaradorligini oshirish iqtisodiyotni tarkibiy modernizatsiya qilishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi<sup>4</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi YalM hajmining shakllanishiga makroiqtisodiy xarajatlar komponentlarining ta'sirini baholash maqsadida keynscha yondashuvga asoslangan xarajatlar usuli modeli tanlab olindi. Ushbu modelning fundamental nazariy asosi quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Prezident: har bir yutuq va natija, avvalo, inson qadrini ulug'lash, uning huquq va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda. — 2025-yil 27-avgust. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz>
- 2 Barro R. J. Economic Growth in a Cross Section of Countries // The Quarterly Journal of Economics. — 1991. — Vol. 106. — No. 2. — pp. 407-443.
- 3 Xodiyev B.Y., Mustafakulov Sh.V. Ekonometrik modellashirish. Darslik. — Toshkent: "Iqtisodiyot", 2019. —320 b.
- 4 Mustafakulov Sh. V. Jafaza M. S. Investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik tahlili // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. — 2021. — № 3. — 12-22-b.





$$Y=C+G+I+X_n$$

Bu yerda,  $Y$  — yalpi ichki mahsulot (YalM),  $C$  — uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari,  $G$  — davlatning iste'mol xarajatlari,  $I$  — yalpi investitsiyalar (asosiy kapitalni shakllantirish) va  $X_n$  — sof eksport (eksport – import) qiymatlaridir.


Ushbu nazariy model asosida O'zbekiston iqtisodiyotining 2010–2025-yillar oralig'idagi dinamikasini baholash maqsadida ko'p omilli chiziqli regressiya modeli shakllantirildi. Model parametrlarini aniqlash va statistik testlardan o'tkazish jarayonlari Stata dasturiy paketi yordamida eng kichik kvadratlar usuli (OLS) orqali amalga oshirildi.

Empirik modelni baholashda statistik ishonchlilik darajasini oshirish maqsadida o'zgaruvchilar o'rtasidagi multikollinearlik va avtokorrelatsiya muammolari tekshirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot shakllanishining umumiy tendensiyalarini o'rganish maqsadida, birinchi navbatda, mamlakat iqtisodiyotining so'nggi yillardagi nominal o'sish dinamikasi ko'rib chiqildi (1-rasm).

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2025-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti joriy narxlarda izchil va sezilarli ravishda ortib borgan. 2025-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 1 849,7 trillion so'mni tashkil etdi. 2021-yilda bu ko'rsatkich 861,2 trillion so'm bo'lgan va so'nggi besh yilda qariyb ikki barobarga oshgan. Mazkur ma'lumotlar YalMning tarmoq tuzilmasini tahlil qilish va asosiy makroiqtisodiy omillarni aniqlash imkonini beradi. Grafikda aks etgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu davr mobaynida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhitining yaxshilanishi va tashqi savdo aloqalarining kengayishi iqtisodiyotning yalpi hajmining jadal oshishiga xizmat qilgan.



1-rasm. Yalpi ichki mahsulot hajmi, xarajatlar usulida, joriy narxlarda, mlrd so'm<sup>5</sup>.

Ushbu umumiy o'sish tendensiyasiga makroiqtisodiy xarajatlar komponentlarining ta'sir darajasini miqdoriy baholash maqsadida 2010–2025-yillar ma'lumotlari asosida ko'p omilli chiziqli regressiya modeli qurildi. Eng kichik kvadratlar usuli (OLS) yordamida olingan model natijalari quyidagi empirik tenglama ko'rinishiga ega bo'ldi:

5 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan..



. regress YaIM Uy\_xojaliklari Davlat\_xarajatlari Investitsiyalar Sof\_eksport

| Source   | SS         | df | MS         | Number of obs | = | 16      |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|---------|
| Model    | 4.4591e+12 | 4  | 1.1148e+12 | F(4, 11)      | = | 6987.26 |
| Residual | 1.7550e+09 | 11 | 159543584  | Prob > F      | = | 0.0000  |
|          |            |    |            | R-squared     | = | 0.9996  |
|          |            |    |            | Adj R-squared | = | 0.9995  |
| Total    | 4.4608e+12 | 15 | 2.9739e+11 | Root MSE      | = | 12631   |

| YaIM               | Coefficient | Std. err. | t     | P> t  | [95% conf. interval] |
|--------------------|-------------|-----------|-------|-------|----------------------|
| Uy_xojaliklari     | .979735     | .1411119  | 6.94  | 0.000 | .6691498 1.29032     |
| Davlat_xarajatlari | 1.200591    | .5443811  | 2.21  | 0.050 | .0024163 2.398766    |
| Investitsiyalar    | .3882474    | .1469262  | 2.64  | 0.023 | .0648651 .7116298    |
| Sof_eksport        | -.3222135   | .2251463  | -1.43 | 0.180 | -.8177571 .1733301   |
| _cons              | 23970.46    | 8772.408  | 2.73  | 0.019 | 4662.517 43278.4     |

$$YaIM_t = 23970,46 + 0,98Iste'mol_t + 1,20Davlat\ xarajatlari_t + 0,39Investitsiyat_t - 0,32Sof\ eksport_t$$

Ekonometrik model natijalarining iqtisodiy va statistik tahlili quyidagi muhim xulosalarni aniqlashga imkon beradi:

Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari koeffitsiyenti 0,98 ga teng. Ushbu koeffitsiyent aholi iste'mol xarajatlarning 1 mlrd so'mga ortishi YaIM hajmining o'rtacha 0,98 mlrd so'mga ko'payishiga olib kelishini ko'rsatadi. Bu esa ichki iste'mol talabi mamlakat iqtisodiy o'sishining fundamental asoslaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Davlat xarajatlari koeffitsiyenti 1,2 ga tengligi natijadan ko'rindi. Demak, davlat xarajatlarning 1 mlrd so'mga ortishi YaIM hajmining o'rtacha 1,2 mlrd so'mlik o'zgarishi bilan bog'liq. Davlat xarajatlarning bunday yuqori multiplikator samarasi iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmaviy loyihalar va ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan davlat investitsiyalarining iqtisodiy faollikni rag'batlantirishdagi roli yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Yalpi investitsiyalar koeffitsiyenti 0,39 ga teng. Bundan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, investitsiyalarning 1 mlrd so'mga ko'payishi YaIM hajmining o'rtacha 0,39 mlrd so'mga oshishi bilan kuzatiladi. Investitsiyalar uzoq muddatli istiqbolda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy omili hisoblanadi.

Sof eksport koeffitsiyentining manfiy qiymatga ega bo'lishi (–0,32) tanlangan davrda sof eksport va YaIM o'rtasida teskari bog'liqlik kuzatilganini ko'rsatadi. Biroq ushbu koeffitsiyent statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lganligi sababli, sof eksportning YaIMga mustaqil ta'siri yetarli darajada tasdiqlanmagan. Mazkur natijaga tashqi savdo saldosining o'zgaruvchanligi, import tarkibida texnologik uskunalar, xomashyo va investitsion tovarlar ulushining yuqoriligi, shuningdek, sof eksportning iste'mol va investitsiya ko'rsatkichlari bilan korrelyatsiyasi ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Shu sababli sof eksport o'zgaruvchisi modelning nazariy tuzilishini saqlab qolish maqsadida regressiya tenglamasiga kiritilgan. Importning investitsion va ishlab chiqarish maqsadlariga yo'naltirilgan qismi qisqa muddatda sof eksport ko'rsatkichini pasaytirishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

YaIMga ta'sir qiluvchi omillarni Stata dasturida tahlil qilish davomida modelning determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2$ ) juda yuqori ko'rsatkichni tashkil etib, tanlab olingan makroiqtisodiy xarajatlar komponentlari O'zbekiston YaIM hajmidagi o'zgarishlarning katta qismini tushuntirishini ko'rsatadi.

Olingan regressiya modelining ishonchiligi va vaqtli qatorlarda ko'p kuzatiladigan qoldiqlarning o'zaro bog'liqligi (avtokorrelyatsiya) muammosini tekshirish maqsadida diagnostik testlar o'tkazildi.



. estat durbinalt

Durbin's alternative test for autocorrelation

| lags(p) | chi2  | df | Prob > chi2 |
|---------|-------|----|-------------|
| 1       | 0.480 | 1  | 0.4882      |

H0: no serial correlation

Durbinning muqobil avtokorrelatsiya testi natijalariga ko'ra, **Prob > chi<sup>2</sup>** ko'rsatkichi 0,4882 ni tashkil etdi. Bu qiymat 5 foizlik (0,05) ahamiyatlilik darajasidan yuqori bo'lganligi sababli, modelda avtokorrelatsiya mavjud emasligi haqidagi nol gipoteza ( $H_0$ ) qabul qilinadi.

. dwstat

Durbin-Watson d-statistic( 5, 16) = 1.541641

Durbin-Watson statistikasi 1,5416 ni tashkil etgani model qoldiqlarida kuchli birinchi tartibli avtokorrelatsiya aniqlanmaganini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichning qabul qilingan kritik mezonlar ( $1,5 < DW < 2,5$ ) oralig'ida joylashgani model qoldiqlarida birinchi tartibli avtokorrelatsiya muammosi mavjud emasligini va olingan empirik natijalar makroiqtisodiy tahlillar hamda prognozlar uchun statistik jihatdan qoniqarli ekanligini tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi YaIM xarajatlari tarkibini ekonometrik modelashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, tanlangan davrda aholi iste'moli va davlat xarajatlari YaIM hajmi bilan ijobiy bog'liqlikka ega bo'lgan. Investitsiyalar koeffitsiyentining ijobiy qiymati asosiy kapitalni yangilash va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qaratilgan investitsiya siyosatini davom ettirish muhimligini ko'rsatadi. Sof eksport koeffitsiyentining statistik jihatdan ahamiyatsizligi esa ushbu ko'rsatkichning YaIM bilan mustaqil va barqaror bog'liqligi yetarli darajada tasdiqlanmaganini anglatadi. Mazkur natijaga tashqi savdo saldosi o'zgaruvchanligi, import tarkibida investitsion tovarlar ulushining yuqoriligi hamda sof eksportning iste'mol va investitsiya ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligi ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Kelgusida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun aholi farovonligini oshirish, davlat budjeti mablag'larini yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi yashil va raqamli tarmoqlarga samarali yo'naltirish hamda eksportga yo'naltirilgan mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Prezident: har bir yutuq va natija, avvalo, inson qadrini ulug'lash, uning huquq va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda. – 2025-yil 27-avgust. – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/8428>
2. Barro, R. J. Economic Growth in a Cross Section of Countries // *The Quarterly Journal of Economics*. – 1991. – Vol. 106. – No. 2. – P. 407–443. DOI: 10.2307/2937943.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2025-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti hajmi 7,7 foizga o'sdi. – 2026-yil 27-yanvar. – Murojaat sanasi: 12.07.2026.
4. Mustafakulov, S. I., Tursunov, B. O., & Tursunov, U. A. The Empirical Research on Causal Relationship Between Export and Foreign Investments in the Economy of Uzbekistan Based on Granger Test // *International Journal of Engineering and Advanced Technology*. – 2019. – Vol. 9. – No. 1. – P. 4631–4635. DOI: 10.35940/ijeat.A2924.109119.
5. Xodiyev, B. Y., Shodiyev, T. Sh., & Berkinov, B. B. *Ekonometrika: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: IQTISODIYOT, 2018. – 178 b.
6. Mankiw, N. G., Romer, D., & Weil, D. N. A Contribution to the Empirics of Economic Growth // *The Quarterly Journal of Economics*. – 1992. – Vol. 107. – No. 2. – P. 407–437. DOI: 10.2307/2118477.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 7/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>